

## **BADIIY ASARLARDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMASI MUAMMOLARI**

**Umaraliyeva Munojat Mashrabovna**

FarDU, ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o'qituvchisi,

**O'ktamova Muyassarxon Jamoliddin qizi**

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilidagi badiiy asarlarda qo'llangan lingvokulturologik birliklarning bir tildan ikkinchisiga tarjima qilishdagi muammolar va bunda tarjimonning lingvokulturologik mahoratining ahamiyati haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *lingvokulturologiya, kommunikativ jarayon, leksema, frazeologik birliklar, idiomatic birliklar, urf-odat.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the problems of translating linguistic and cultural units used in English and Uzbek literary works and the importance of translator's linguacultural skills.*

**Key words:** *linguaculturalology, communicative process, lexeme, phraseological units, idiom, traditions.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются проблемы перевода языковых и культурных единиц, используемых в английских и узбекских литературных произведениях, и важность лингвокультурных навыков переводчика.*

**Ключевые слова:** *лингвокультурология, коммуникативный процесс, лексема, фразеологизмы, идиоматические единицы, традиция.*

### **KIRISH**

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'siri ostida yaratilgan va u tarjimalarda, ya'ni leksema, fraza, gap va matnlarni boshqa tilga tarjima qilishda, ma'lum bir xalqning urf-odat, an'ana va madaniyatini yetkazib berishda namoyon bo'ladi. Tarjima uchun ikki tilni mukammal bilish yetarli emas, tarjimon tarjima qilayotgan asari tegishli bo'lgan xalqning madaniyati va dunyoqarashi haqida ham bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. Shundagina u muallifning asl maqsadini ochib bera oladi va tarjima muvaffaqiyat qozonadi. Masalan, lingvokulturologik birliklardan biri bo'lgan frazeologizmlar millat madaniyati va mentaliteti haqidagi ma'lumotlarning qimmatli manbai hisoblanadi. Ular kommunikativ jarayondagi eng

muhim birliklardan biri bo‘lib, tildagi madaniy ma’lumotlar va xalqning milliy tafakkur tarzini aks ettiradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

O‘zbek xalq og`zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lmish “Alpomish” dostonida “boshi ochiq” iborasi qo‘llaniladi: “If that girl’s head was empty”. “Boshi ochiq” iborasi “turmush qurmagan” degan ma’noni anglatadi. Agar tarjimon ushbu iboraning asl ma’nosini anglay olmasa va uni boshqa tilga ko‘rinib turganidek tarjima qilsa, ma’no buziladi. Tarjimada xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun esa o‘zbek urf-odatlari haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish talab qilinadi. “Alpomish” dostonining Egamberdi baxshi ijrosidagi variantida “putting one’s head on the ground” iborasi qo‘llaniladi. Bu ibora “kimnidir uyatga qo‘ymoq” ma’nosini bildiradi va uni boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjima qilish yoki ingliz tilidagi variantini ko‘ringanidek tushunish tarjimonni to‘g`ri yo‘ldan adashtiradi.

Bundan tashqari, Donna Tartt o‘zining “The Secret History” asarida 596 ta ibora qo‘llagani ma’lumotlarda qayd etilgan. Masalan, shaxsning xarakter xususiyatlarini tasvirlash uchun “you are as light as feather”, hissiyotlarini tasvirlash uchun “driving me crazy” kabi iboralardan foydalangan. Iboralar inson ongidan bir so‘z kabi o‘rin olgani uchun matndagi ko‘zda tutilgan ma’noni tezroq anglashga yordam beradi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asarida bir qator iboralar ishtirotini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida “take someone for a ride” iborasini olaylik, biz uni to‘g`ridan to‘g`ri “birovni ot, velosiped yoki transportda sayohat uchun olish” tarzida tarjima qila olmaymiz. Ushbu ibora “biror kishini qandaydir tarzda aldamoq” ma’nosini anglatadi. Asarda “look at” iborasini ham uchratishimiz mumkin. Bu iboraning esa bir nechta ma’nolari mayjud: qaror qabul qilmoqchi bo‘lgan mavzu haqida chuqur o‘ylamoq; biror narsani baholash maqsadida o‘qib chiqmoq va boshqalar. Badiiy asarlarda qo‘llangan iboralar haqida so‘z ketganda shuni aytish mumkinki, badiiy asarlarni o‘qish oson emas, chunki o‘quvchi asarni tushunishi uchun unda qo‘llangan iboralarni tushunishi lozim. Misol uchun, “a choice apple” iborasini “olma tanlovi” deb tarjima qila olmaymiz, sababi u “yaxshi tanlov” degan ma’noga ega. “Her face was white” iborasi “uning yuzi oq edi” degan ma’noni emas, “uning yuzi bo‘zargan edi” degan ma’noni bildiradi.

Har bir ijodkor o‘z ijod mahsulini yanada boyitish maqsadida iboralardan foydalanadi. Jumladan, Charles Dickens asarlari ham iboralarga boy. “Many’s the time” iborasi Dickens asarlarida ko‘p uchraydi va u “ko‘p vaziyatlarda” degan

ma'noga ega:"I have tried to instil into him many and many's time". Yamamotoning ta'kidlashicha (2003), Dickens o'z asarlarida ravish-iboralardan ko'p foydalanar ekan. "Heart and soul" iborasi, odatda, ravish sifatida qo'llaniladi va "biror kishining barcha energiya va harakatlari bilan" degan ma'noga ega.

O.Henry asarlarida ham ko'plab idiomatik birliklarga duch kelamiz. Uning "The Gift of the Magi" hikoyasida qo'llanilgan "flung to the breeze" iborasi "shabadaga otmoq" ma'nosini emas, "biror ishni uning oqibatlari haqida o'yamasdan, beparvolik bilan bajarmoq" ma'nosini bildiradi. Ko'rib turganingizdek, iboralarni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin emas.

Tohir Malikning "Shaytanat" asarida ham iboralar lingvokulturologik ahamiyat kasb etib, bular orqali xalqimiz madaniyatiga oid tushunchalar o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin:

*-O'z kuching bilan meni bu yerdan chiqarib ketganingda rahmat aytardim. Sen bo'lsa bir boshi buzuqning marhamati bilan menga ozodlik bermoqchi bo'libsan. Miyang aynib qolibdi.*

Yuqorida keltirilgan dialogda qo'llangan "miyasi aynimoq" iborasi aslida "fikrlash qobiliyatini yo'qotmoq" ma'nosini bildiradi. Iboradan so'zlovchining foydalanishi tinglovchini kamsitilganligi, haqorat qilinganlikni anglatadi va shu kabi iboralar juda kuchli g'azab yoki ziddiyat yuzaga kelganda qo'llanadi. Bundan tashqari asarda qahramonlar tilidan keltirilgan "qo'y og`zidan cho'p olmagan" iborasi nihoyat darajada beozor, mo'min, yuvosh, xushfe'l insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu frazemaning ham lingvokulturologik ahamiyati mavjud bo'lib, unda ham shaklan, ham mazmunan xalqimiz madaniyatiga va ma'naviyatiga xos belgilar mavjud. Xalqimiz turmush tarzida azaldan chorvadorlik ishi muhim o'rin tutgan. Iborada aynan qo'y obrazining keltirilganligi ham mana shu omilga bog`liq.

Oybekning "Quyosh qoraymas" romanida ham bir qator frazeologik birliklar qo'llangan. Asarda "abadiy uyqu"(o'lim), "badaniga darmon yugurmoq"(kuchga kirmoq), "ko'zi tushmoq"(qaramoq), "tuproq tortmoq"(ko'mmoq), "yuragi xun bo'lmoq"(siqilmoq) kabi iboralarni uchratishimiz mumkin. Ular ham o'zida o'zbek madaniyatiga xos jihatlarni aks ettirgan. Misol tariqasida "tuproq tortmoq" iborasini tahlil qilaylik. "Ko'mmoq, dafn etmoq" ma'nolarini bildiruvchi ushbu iborada islom diniga xos odatni ko'rishimiz mumkin. Bilamizki, islom dinida inson vafot etganidan so'ng qabrga dafn etiladi, qabr ustidan esa tuproq tortiladi.

Yana ingliz adabiyotiga nazar tashlasak, J.K.Rovlingning mashhur asari "Garry Potter" asari tahlilini ko'rib chiqamiz. Rovling ushbu asarida sehrga oid iboralar qo'llaydi. Misol uchun, "pure blood", "mudblood", "creature of dirt" kabi iboralardan

sehrgar insonlar haqida gap borganda foydalanganini ko‘rshimiz mumkin. “Pure blood” iborasi sehrgar oilalarda dunyoga kelgan sehrgarlarni tasvirlashda, “mudblood” oddiy insonlar oilasida dunyoga kelgan sehrgarlarni tasvirlashda, sehrgarlarning aslzodalik darajasini ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi. “creature of dirt” iborasi esa “aslzoda” sehrgarlar tomonidan oddiy insonlar oilasida tug`ilgan sehrgarlarni haqoratlash uchun qo‘llaniladi. Asarni tahlil qilish davomida ko‘rshimiz mimkinki, Rovling ingliz tilidagi iboralar tarkibidagi ba’zi so‘zlarni sehrga oid so‘zlar bilan almashtirish orqali ma’nodosh iboralar yasagan. Masalan, “fell off the back of a broom” iborasi ingliz tilidagi “fell off the back of a lorry” iborasi bilan o‘xhashlik kasb etadi. “Broom” sehrli olamdagи maxsus transport vositasi hisoblanuvchi “supurgi”, sehrgarlar unda sayohat qiladilar va bu so‘z “lorry” ya’ni yuk mashinasi so‘zi o‘rnida qo‘llangan. “fell off the back of a lorry” iborasi “noqonuniy tarzda olingen yoki o‘g’irlangan” narsani ifodalaydi. Asardagi ekvivalenti ham xuddi shu ma’noda qo‘llangan. Roman bu kabi iboralarga juda boy.

Bundan tashqari, P.LTraversning “Mary Poppins” romanida 50 ga yaqin frazeologik birliklar mavjudligi ma’lumotlarda qayd etilgan. Ulardan biri “made up” birikmasidir:

*-She had made up her mind, she said.*

Yuqoridagi gapda “made up” iborasi “oxirgi qarorni qabul qilish” ma’nosini anglatadi.

*“She went upstairs to take off her white gloves and put the umbrella away”* gapida “take off” iborasi “biror narsani olib tashlamoq”, “put something away” esa “biror narsani o‘z joyiga qo‘ymoq” ma’nosini bildiradi. Ushbu iboralar bosh qahramon Mary Poppins tomonidan aytilgan.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, iboralarni tahlil qilish va boshqa tillardagi ekvivalenti bilan solishtirish asarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Zero, har bir iborada ma’lum bir millat suvrati chiziladi. Badiiy asarlarda esa, u qaysi xalqqa tegishli bo‘lmisin, milliy xalq xarakteri, ma’naviyatini ochib beruvchi frazemalar anchagina bo‘lib, ulardan foydalanish ham yozuvchining mahoratini, ham qahramonga xos xususiyatlarni to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi.

## REFERENCES:

1. Abdullayeva, N. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE AMONG STUDENTS-FUTURE TRANSLATORS USING A TEACHING THESAURUS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(6), 1207-1210.

2. Aliyeva, S. A. Q. (2021). LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(11), 135-140.
3. Haris Fadhillah, J.Bismoko. The functions of idioms with magical terminology in building the story of J.K.Rowling's "Harry Potter and the order of the phoenix". *Journal LingTera*. October 2014.
4. Haydarova, U. (2022). THE TRANSLATIONS AND MEANINGS OF METAPHORS THAT USED IN "HOJOKI". *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 22), 54-57.
5. Julia Holmqvist. Idiomatic expressions in fiction:A textual analysis of the use and effectsof idioms in Donna Tartt's novel "The secret history". 2014
6. Khofiana Mabruroh. An analysis of idioms and their problems found in the novel " The adventures of Tom Sawyer " by Mark Twain.2015.
7. Myuki Nishio. The development of idiomatic expressions in Dickens.
8. Munojatxon, U., & Muyassar, T. (2022). INGLIZ VA OZBEK XALQLARIGA XOS LINGVO-KULTUROLOGIK HODISALARING QIYOSIY TAHLILI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(5), 164-167.
9. Mashrabovna , U. M. ., qizi , A. S. V. ., & Mirzamahmudovna, U. S. . (2022). Ingliz Va O'zbek Ijtimoiy Tarmoqlarida Ilmiy Terminlarning Qo'Llanilishining Ahamiyati. Miasto Przyszlosci, 28, 453–454. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/675>
10. Nia Liska Saputri, Irfan Hadi. An analysis of idiom expressions in novel "Mary Poppins" by P.L.Travers. *Journal Lentera Pendidikan Pusat Penelitian*. 2021.
11. Qo'ziboyeva Go'zal Saidrasul qizi. Badiiy asarda frazemalarning ishlatilishi va lingvistik tahlil(Oybekning "Quyosh qoraymas" romani misolida). Science and innovation. International scientific journal.2022.
12. Ro'zixon No'monova. "Shaytanat" asarida qo'llangan ayrim frazemalarning lingvokulturologik xususiyatlari. *Oriental journal of social sciences*.2022.
13. Shoira Isaeva. Linguoculturological aspect of translating realias. *Philology matters*.2020.
14. Sh.M.Iskandarov, D.A.Ashurov. Linguoculturological analysis of "head" stem phrasemas. A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.2020
15. Sultanovna U. S. ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE WORK OF S. RICHARDSON "PAMELA OR THE REWARDED VIRTUE". – 2020.

- 
16. Umaralieva, M. (2021). Some challenges in encouraging independent learning. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1878-1882.
  17. Umaraliyeva, M., & Abdurahimzoda, S. (2022). OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TOGRI MULOQOTNI BOSQICHMA BOSQICH YARATISH USULLARI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(6), 70-73.
  18. Umaralieva, M. M. (2014). THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING AND LEARNING. In ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ЛИНГВООБРАЗОВАНИЕ (pp. 433-436)